O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 14 - aprel 119-8-121-Q/22 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahar hokimining 2021-yil 11-oktabrdagi “2022-yilda Termiz shahrida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 162-8-121-Q/21-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida 2022-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilish (zahiralash) to‘g‘risida qabul qilingan qaroriga qo‘shimcha ravishda nogironligi bo‘lgan va boshqa toifadagi shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilish maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. Termiz shahridagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni (ilovaga asosan) 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilotlar sonidan kelib chiqib, Termiz shahrida bo‘lgan va boshqa toifadagi shaxslar uchun qo‘shimcha 12 ta ish o‘rinlari band qilinganligi korxona va tashkilotlar kesimida belgilanganligi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muxofazaga muhtoj shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifasi uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq tashkil etilsin.

3. 2022-yilda Termiz shahrida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish bo‘yicha korxona va tashkilotlar kesimida ish o‘rinlarini tashkil etish ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ilovada ko‘rsatilgan korxona va tashkilotlar rahbarlari belgilangan ish o‘rinlari tashkil etilishini to‘liq ta’minlasin.

5. Quyidagilar:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarorni bajarmagan, shuningdek, ularni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi;

ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan korxona va tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiyalar ajratilishi belgilab qo‘yilsin.

6. Termiz shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi v.b (Sh.Rajabov) besh kun muddatda ushbu qaror ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilansin.

8. Mazkur qaror “Termiz oqshomi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Elamanov hamda Termiz shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi v.b (Sh.Rajabov) zimmasiga yuklansin.

Termiz shahar hokimi **I.B.Xudayberdiyev**

Termiz shahar hokimining
2022 yil 14 apreldagi
119-8-121-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Termiz shahridagi tashkilotlar bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risida

QO‘SHIMCHA TAKLIF

№	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	INN	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarining umumiy soni	Oldingi yillar hisobga olingan holda taklif kiritilgan sanadan zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlari soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:	
						Nogironlarga	Boshqa toifadagilarga
1	TDU QOSHIDAGI 2-SON AKADEMIK LITSEYI	206967685	114	0	2	1	1
2	УЧРЕЖДЕНИЕ “BAXSHICHILIK SAN’ATIGA IXTISOSLASHTIRILGAN PESPUBLIKA MAKTAB-INTERNATI”	308239146	45	0	3	2	1
3	OOO “KAFOLAT-TERMIZ”	300013275	54	0	1	1	0
4	OOO “JANUB TARAQQIYOT FAYZ”	300561441	40	0	2	2	0
5	TERMIZ SANOAT VA TRANSPORT KASB-HUNAR KOLLEJI	200475203	114	0	1	1	0
6	26-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	308648223	42	0	2	2	0
7	“KOMFORT MEBEL SERVIS” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	303939584	29	0	1	1	0
	JAMI:		**438**	**0**	**12**	**10**	**2**